

# **O'QUVCHILAR JAMOASI BILAN ISHLASHDA INTERAKTIV IJTIMOY SHAKLLARINING PEDAGOGIK ASOSLARI**

**(bo'lajak boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari misolida)**

Nurmanova Dilfuza Jamilovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti kafedrası  
mustaqil izlanuvchisi e-pochta: [dilfuzanurmanova05@gmail.com](mailto:dilfuzanurmanova05@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida o'quvchilar jamoasi bilan ishlashda interaktiv ijtimoiy shakllarining pedagogik samaradorligini asoslashdan iborat. Tadqiqot sotsiokonstruktiv, kooperativ, tajribaviy va ijtimoiy o'rganish nazariyalariga tayangan holda aralash metodologiya asosida amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari kooperativ ta'lim, loyiha va xizmatga yo'naltirilgan o'qitish, *jigsaw*, *think-pair-share* hamda o'quv hamjamiyatlari kabi interaktiv shakllarni tizimli qo'llash bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasi, jamoada ishlash kompetensiyasi va metodik tayyorgarligini oshirish nazarda tutiladi. Interaktiv ijtimoiy shakllar bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda ta'lim sifati va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** kooperativ ta'lim, ijtimoiy o'rganish, tajribaviy ta'lim, o'quv hamjamiyati, jamoaviy ish, ijobiy o'zaro-bog'liqlik, individual javobgarlik, interaktiv metodlar.

## **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕРАКТИВНЫХ СОЦИАЛЬНЫХ ФОРМ РАБОТЫ С УЧЕНИЧЕСКИМ КОЛЛЕКТИВОМ (НА ПРИМЕРЕ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ)**

**Аннотация:** В данной статье обосновывается педагогическая эффективность интерактивных социальных форм работы с ученическим коллективом в процессе подготовки будущих учителей начального образования. Исследование выполнено на основе социоконструктивистского, кооперативного, опытного и социального обучения с применением смешанной методологии. Результаты исследования показывают, что систематическое использование таких интерактивных форм, как кооперативное обучение, проектное и сервис-ориентированное обучение, *jigsaw*, *think-pair-share*, а также учебные сообщества, способствует повышению профессиональной мотивации, развитию компетенций командной работы и методической подготовленности

будущих учителей. Интерактивные социальные формы рассматриваются как эффективное педагогическое средство повышения качества подготовки и формирования профессиональных компетенций будущих учителей начального образования.

**Ключевые слова:** кооперативное обучение, социальное наущение, опытное обучение, учебные сообщества, групповая работа, позитивная взаимозависимость, индивидуальная ответственность, интерактивные методы.

**PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF INTERACTIVE SOCIAL FORMS IN  
WORKING WITH STUDENT GROUPS  
(ON THE EXAMPLE OF PROSPECTIVE PRIMARY EDUCATION  
STUDENTS)**

**Abstract:** This article substantiates the pedagogical effectiveness of interactive social forms of working with learner groups in the process of preparing future primary school teachers. The study is grounded in socioconstructivist, cooperative, experiential, and social learning theories and employs a mixed-methods research design. The findings indicate that the systematic use of interactive approaches such as cooperative learning, project- and service-based learning, *jigsaw*, *think-pair-share*, and learning communities enhances future teachers' professional motivation, teamwork competence, and methodological preparedness. Interactive social forms are therefore identified as an effective pedagogical tool for improving the quality of teacher education and fostering the professional competencies of future primary school teachers.

**Keywords:** cooperative learning, social learning, experiential learning, learning communities, group work, positive interdependence, individual accountability, interactive methods.

**KIRISH.**

Zamonaviy maktab ta'limida o'quvchilar jamoasi bilan ishlashning interaktiv ijtimoiy shakllari o'quvchining fanga oid bilimlarni egallashdan tashqari, metakompetensiyalar — hamkorlik, muloqot, muammolarni hal etish, ijtimoiy mas'uliyat va madaniy-huquqiy savodxonlikni shakllantirishga ko'maklashadi. Interaktiv ijtimoiy shakllar deganda rejalashtirilgan sinf o'zaro ta'siri asosida bilim yaratish va transferini kuchaytiruvchi didaktik modellar tushuniladi. Ushbu yondashuvning falsafiy-nazariy asosi sotsiokonstruktivizm bo'lib, L.S.Vigotskiy ta'kidlaganidek, "har bir bolada rivojlanishning yaqin rivojlanish zonasi mavjud; u ijtimoiy hamkorlik orqali kengayadi"[1]. Mazkur fikr ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy muhit bilan ajralmas bog'liqligini ilmiy asoslaydi va jamoada o'qitishning metodik zaruriyatini ko'rsatadi. D.Deweyning "Ta'lim hayotga tayyorgarlik emas, ta'limning

o‘zi hayotdir” degan mashhur gapi[2] interaktiv shakllarning hayot bilan bog‘liqligini, tajriba va amaliyot orqali mazmunli o‘rganish sharoitlarini yaratish lozimligini eslatadi. Ushbu mulohaza jamoaviy faoliyatning nechog‘lik tabiiy o‘quv muhiti ekanini yanada ravshanlashtiradi. Kooperativ ta’lim bo‘yicha yirik tajriba umumlasmalarida R.Slavin ijobiy o‘zaro-bog‘liqlik, individual javobgarlik, teng ishtirok, ijtimoiy ko‘nikmalar va guruh jarayonini tahlil qilish singari komponentlarni tizimli muvofiqlashtirish samarali natijani belgilashini asoslaydi[3]. A.Bandura ijtimoiy o‘rganish nazariyasida kuzatish, identifikatsiya va modellashtirish mexanizmlari orqali xulq va bilimlar shakllanishini ko‘rsatadi[4]. Sinfdagi rolli o‘yinlar, namuna ko‘rsatishlar, tengdosh mentorligi aynan shu mexanizmlarni ishga soladi. D.Kolbning tajribaviy ta’lim sikli esa reflektiv kuzatish, mavhum konseptualizatsiya va tajribani yangilash bosqichlarida interaktiv mashg‘ulotlarni loyihalashga metodik asos bo‘ladi[6]. E.Wengerning amaliy hamjamiyatlar konsepsiyasiga muvofiq, ta’lim jarayoni shaxsning hamjamiyat faoliyatiga legitim ishtirok orqali bosqichma-bosqich qo‘shilishi hamda hamkorlik asosida umumiy ma’no va bilimlarni birgalikda konstruksiya qilish jarayoni sifatida talqin etiladi[5]. Ushbu nazariy ma’lum tamoyillarning interaktiv ijtimoiy shakllarni pedagogik asoslarini keltiradi va ularni sinf amaliyotiga moslashtirish yo‘llarini ko‘rsatadi. Shuningdek, P.Freire “dialog ijtimoiy erkinlikning asosi”ni ta’kidlar ekan, dialogik o‘qitish o‘quvchining sub’ekt sifatida ishtirokini kengaytirishini ko‘rsatadi[7]. Izlanishlar jarayonida dialogning mazmundorligi bahsni o‘zi uchun emas, tushunishni chuqurlashtirish uchun yo‘naltirilganida namoyon bo‘ladi. Mamlakatimizdagi kompetensiyaga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini amaliyotga tatbiq etishda ana shu interaktiv ijtimoiy shakllar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ular o‘quvchini faqat bilim qabul qiluvchi emas, balki bilim yaratuvchi, hamkor muallif sifatida maydonga chiqaradi[8].

Ushbu izlanish jarayonida, aralash uslub (mixed-methods) yondashuvidan qo‘llanildi. Maqsad — interaktiv ijtimoiy shakllar paketini joriy qilish va uning ta’limiy-sotsial natijalarini baholash, shuningdek, operatsion dizayn tamoyillarini aniqlashtirishdir.

Kontekst va ishtirokchilar. Tadqiqot uchta umumta’lim maktabining 3–4-sinflarida (N = 168 nafar o‘quvchi; 84 nafar qiz, 84 nafar o‘g‘il; 9 nafar boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi) 10 hafta davomida amalga oshirildi. Tadqiqot ona tili va o‘qish savodxonligi, tabiatshunoslik hamda tarbiya fanlari doirasida olib borildi.

Intervensiya komponentlari. Interaktiv ijtimoiy shakllar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ldi:

(a) *Jigsaw* strukturasi asosida mavzularni qismlarga ajratib o‘rganish va yoshga mos “ekspert” guruhlar tashkil etish;

(b) *Think–Pair–Share* texnikasi orqali savol-javob va qisqa og‘zaki muhokamalarni yo‘lga qo‘yish;

(c) kichik guruhlar uchun aniq rollar (rahbar, yordamchi, kotib, vaqt nazoratchisi, taqdimotchi) hamda sinf qoidalarini belgilash;

(d) loyiha faoliyati va xizmatga yo‘naltirilgan mini-loyihalar (maktab atrofi ekologik kuzatuvlari, oilaviy tarix asosida suhbatlar);

(e) yoshga mos bahs va muhokama doiralari;

(f) dars yakunida guruh refleksiya va “keyingi qadam”larni belgilash.

Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari uchun 10 soatlik malaka oshirish moduli ishlab chiqildi. Modulda kooperativ ta‘lim tamoyillari, formatif baholash mezonlari, ijtimoiy ko‘nikmalarni modellashtirish hamda nizolarni konstruktiv boshqarish masalalari yoritildi.

O‘lchovlar va vositalar. Tadqiqotda quyidagi diagnostik vositalardan foydalanildi:

(1) o‘quvchilarning ishtiroki va o‘quv motivatsiyasi shkalasi (Likert 5 pog‘onali, 10 band; Cronbach  $\alpha = 0,84$ );

(2) hamkorlik ko‘nikmalarini baholash rubrikasi (muloqot, mas’uliyat, o‘zaro yordam, nizolarni hal qilish — 4 darajali);

(3) fanlar bo‘yicha qisqa diagnostik topshiriqlar (pre/post, 15 savol);

(4) sinf ichidagi ijtimoiy munosabatlarni aniqlashga yo‘naltirilgan sotsiometrik so‘rov;

(5) dars kuzatuv protokoli (o‘qituvchining interaktiv strategiyalari, o‘quvchilar faolligi, o‘tishlar sifati).

Ma‘lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish. Ma‘lumotlar bazaviy (1-hafta), oraliq (5-hafta) va yakuniy (10-hafta) bosqichlarda to‘plandi. Miqdoriy ma‘lumotlar juft t-test, Cohen’s *d* effekt kattaligi va 95% ishonch oralig‘i asosida tahlil qilindi. Sifat ma‘lumotlari tematik kodlash orqali qayta ishlanib, ikkilamchi kodlovchi bilan moslik koeffitsienti  $\kappa = 0,77$  ni tashkil etdi.

Etik masalalar. Tadqiqot jarayonida ota-onalarning yozma roziligi olindi, ishtirokchilarning shaxsi anonimlashtirildi, tadqiqotda ishtirok etishni istalgan vaqtda to‘xtatish huquqi ta‘minlandi hamda ma‘lumotlarni himoyalash choralariga rioya qilindi.



### Miqdoriy ko'rsatkichlar:

(a) O'quvchilarning ishtirok indeksi o'rtacha 0,54 SD ga oshdi ( $d = 0,54$ ;  $p < 0,01$ ), ayniqsa 1–2-sinflarda sezilarli darajada.

(b) Fan testlari bo'yicha umumiy o'sish 0,38 SD ( $d = 0,38$ ;  $p < 0,05$ ) ni tashkil etdi; tabiatshunoslik fanida terminologik savollarga javoblar hamkorlik vazifalarida aniqroq va to'liqroq bo'ldi.

(c) Sotsiometriya natijalari bo'yicha ijobiy tanlovlar ulushi 12 hafta davomida 18% ga oshdi, chetlanib qolgan o'quvchilar soni kamaydi.

(d) Dars kuzatuv protokollarida off-task xulqlar chastotasi 23% dan 11% gacha pasaydi.

(e) Guruh baholash rubrikalari bo'yicha "mas'uliyatni bo'lishish" va "konstruktiv mulohaza" kategoriyalarida sinf o'rtacha balli "qoniqarli"dan "yaxshi" darajaga ko'tarildi.

Sifat natijalari: o'qituvchilarning refleksiyalarida "rol aniq bo'lsa, jim o'quvchi ham ovoz topadi" degan motiv qayta-qayta uchradi. Bir o'qituvchi shunday deydi: "Debat doirasida fakt va dalilni adashtirmaslikni o'rgandik; toner ovozlarga emas, dalilga suyanishga kelishdik". O'quvchilar esa "Jigsaw'da men ekspert his qildim, meni tinglashdi" kabi fikrlarni bildirdi. Tajribaviy blokda xizmatga yo'naltirilgan mini-loyiha mahalliy muammoga yo'naltirilganida sinfda ma'no va motivatsiya kuchliroq bo'ldi. Shu bilan birga, guruh ichida "free-rider" xavfi borligi ham qayd etilib, individual javobgarlik mexanizmlari kuchaytirilganda bartaraf etildi [3].

Nazariy moslik: kuzatilgan o'sishlar Vygotskiyning ZRZ tamoyiliga muvofiq, tajribali tengdoshlar va o'qituvchi scaffoldingi bilan izohlanadi[1]. Bandura ta'kidlagan modellashtirish mexanizmlari guruhi ichida ijobiy xatti-harakatlar ko'payishini tushuntirdi [4]. Kolb sikli bo'yicha reflektiv bosqichlarni joriy qilish o'rganishning chuqurroq konsolidatsiyasini ta'minladi [6]. Slavin modelidagi ijobiy o'zaro-bog'liqlik va individual javobgarlik uyg'unligi natijalarning barqarorligini ta'minladi [3]. Dewey pozitsiyasi bilan uyg'un ravishda mazmun hayotiy vazifalar bilan bog'langanda ishtirok oshdi [2].

Olingan natijalar interaktiv ijtimoiy shakllar paketini sinf amaliyotiga tizimli integratsiya qilish o'quvchilarning kognitiv natijalari va ijtimoiy-kooperativ ko'nikmalarini bir vaqtda rivojlantirishini ko'rsatadi. Bu birinchidan, vazifa tuzilmasi va ijtimoiy tuzilma o'rtasidagi moslik talabiga e'tibor qaratishni taqozo qiladi: mazmun murakkab bo'lsa, rollar va joriy qoidalar shunchalik aniq bo'lishi kerak[3]. Ikkinchidan, "hamma bitta maqsad sari" tamoyili samarali ishlashi uchun natijaga qo'shilgan shaxsiy hissa shaffof ko'rinishi zarur. Aks holda "free-rider" va "dominant" muammolari paydo bo'ladi. Uchinchi jihati — ijtimoiy ko'nikmalarni tasodifga emas, maqsadli o'rganishga aylantirish: faol tinglash, dalil-isbotni to'g'ri keltirish, kelishmovchilikni madaniyatli ifodalash kabi xatti-harakatlar alohida mashq va modellashtirishni talab qiladi[4; 6]. Deweyning "Ta'lim hayotning o'zi" degan fikri [2] bizning sharoitda xizmatga yo'naltirilgan mini-loyihalar orqali tasdiqlanadi. Bu borada muallif sifatida shuni ta'kidlashimiz jiozki, real ijtimoiy kontekst bilan bog'liq vazifalar o'quvchida "egalik" hissini kuchaytirib, hamkorlikni maqsadli qiladi. Freire tavsiyasidagi dialogik yondashuv [7] muhokama doiralarida o'z aksini topdi. Biroq dialog samarali bo'lishi uchun "qoidalar" va "dalil madaniyati" oldindan o'rgatilishi zarur. Bundan uchun o'qituvchidan fasilitatorlik mahorati talab qiladi. Wengerning amaliy hamjamiyatlar g'oyasi [5] shuni ko'rsatadiki, interaktiv shakllar faqat metodlar jamlanmasi emas, balki sinfda barqaror hamkorlik me'yorlari va umumiy amaliyotni yaratadigan madaniy jarayondir. OECD konseptual izlanishlari ham o'qitish jarayonida hamkorlik, self-regulyatsiya va metakognitsiya uyg'unligi yuqori natija berishini ko'rsatadi[8].

To'plangan amaliy natijalarga shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar interaktiv ijtimoiy shakllarni "hamma darsda ham, hamma payt ham" qo'llash shart emasligini, balki dars maqsadiga mos mikrostrukturani tanlash lozimligini yodda tutishlari kerak. "Think-Pair-Share" tezkor qayta ishlash uchun qulay, "Jigsaw" esa mazmunni differensial o'zlashtirishda samarali. Debat va muhokama doiralari dalillash esa, nutq va savodxonlikni rivojlantiradi. Har bir struktura uchun baholash vositasi (tezkor biletlash, rubrika, tengdosh fikri) oldindan tayyor bo'lishi kerak. Raqamli vositalar

(kollektiv hujjat, jamboard) hamkorlik izlarini qayd etishda va individual hissani ko'rishda foydali bo'ladi.

### **XULOSA**

Interaktiv ijtimoiy shakllar — kooperativ ta'lim strukturasi, debatlar, jamoaviy loyihalar, xizmatga yo'naltirilgan o'qitish va o'quv hamjamiyatlari — o'quvchilar jamoasini o'qitish va tarbiyalashda kuchli pedagogik resursdir. Ular sotsiokonstruktiv, ijtimoiy o'rganish va tajribaviy yondashuvlar bilan nazariy asoslangan. Amaliyotda esa ijobiy o'zaro-bog'liqlik, individual javobgarlik, ijtimoiy ko'nikmalarni o'qitish va refleksiv tahlil orqali samaradorlikka erishadi. Tadqiqot natijalari interaktiv shakllarni tizimli va maqsadga muvofiq joriy etish va o'zlashtirishni oshirishini ko'rsatadi. O'qituvchilar, metodistlar va maktab rahbarlari uchun mazkur yondashuvni strategik qo'llash, baholash arxitekturasini qayta ko'rish va sinf madaniyatini hamkorlikka yo'naltirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Olingan empirik va amaliy natijalar tahlillari asosida ilmiy xulosalar chiqarilib, boshlang'ich ta'limda interaktiv ijtimoiy shakllarni samarali joriy etishga oid tavsiyalar ishlab chiqildi.

- Pedagogik asosi: interaktiv ijtimoiy shakllar sotsiokonstruktiv va tajribaviy ta'limga tayanish; ijobiy o'zaro-bog'liqlik, individual javobgarlik, ijtimoiy ko'nikmalarni o'qitish, guruh jarayonini refleksiya qilish — yagona tizimda qo'llash[1; 3; 6].

- Dizayni: topshiriqlarni umumiy maqsadga yo'naltirilgan holda taqsimlash, rollarni aniqlang, vaqtni rejalatirish, mahsulot va jarayon mezonlarini belgilab olish, yakunda refleksiya va qayta dizaynni amalga oshirish.

- Baholash: formativ baholashni kuchaytirish (tezkor biletlash, mini-chiqishlar), tengdosh bahosi va o'z-o'zini baholashni rubrika bilan uyg'unlashtirish; yakunda individual va guruh natijasini balanslash.

- Ijtimoiy ko'nikmalar: faol tinglash, "men-xabarlar", muloyim e'tiroz va kelishuvga erishish bo'yicha mikro-darslar tashkil etish[4].

- Qo'llab-quvvatlash: "qoida va me'yorlar"ni sinf bilan hamkorlikda yaratish, ijobiy xatti-harakatlarni ta'kidlab boruvchi normativ til joriy etish; o'qituvchi fasilitator bo'lishi, lekin nazorat nuqtalarini saqlash sharti bilan.

- Raqamli hamkorlik: hamkorlik izlarini (versiya tarixi, izohlar) ko'rsatadigan vositalardan foydalanish; bu individual va adolatli baholashga yordam beradi.

- Barqarorlik: interaktiv shakllarni dastlab kichikdan boshlash ("mikro-struktura"), so'ng murakkab loyihalarga o'tish; sinf madaniyati shakllanib borgan sari avtonomiya oshirish[5; 8].

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1) Vigotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978, 159 bet.
- 2) Dewey J. Democracy and Education. New York: The Macmillan Company, 1916, 434 bet.
- 3) Slavin R. E. Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice (Second Edition). Boston: Allyn & Bacon, 1995, 284 bet.
- 4) Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977, 247 bet.
- 5) Wenger E. Communities of Practice: Learning, Meaning, and Identity. Cambridge: Cambridge University Press, 1998, 318 bet.
- 6) Kolb D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1984, 256 bet.
- 7) Freire P. Pedagogy of the Oppressed. New York: Continuum, 1970, 183 bet.
- 8) OECD. The Nature of Learning: Using Research to Inspire Practice. Paris: OECD Publishing, 2010, 340 bet.